

AGIOGRAFIK TERMINLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Tuxtasinova Nigina Bashirovna

O'zbekiston Milliy Universiteti dotsenti, Phd.

Annotatsiya: Ushbu maqola tarjimashunoslikda hagiografik asarlarni tadqiq qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, xorijlik olimlar hagiografik ishlar sohasida juda ko'p tadqiqotlar olib borganlar. O'zbek adabiyotshunosligi tilshunosligida hagiografik asarlarni o'rganishga oid ulkan monografik asarlar, tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, davr talabi bo'lgan o'zbek tarjimashunosligida qo'yilgan ilk qadamlarni alohida ta'kidlash lozim.

Kalit so'zlar: Islom agiografik asarlar. hagiografik atamalar, tarixiy faktlar, diniy atamalar, atipik tarjima

Аннотация: Статья посвящена исследованию агиографических произведений в переводоведении. Исследование показало, что зарубежные учёные провели множество исследований в области агиографических произведений. Несмотря на наличие в узбекском языкознании литературоведения огромных монографических трудов и исследований по изучению житийных произведений, следует отметить первые шаги в узбекском переводоведении, что является требованием времени.

Ключевые слова: Исламские агиографические произведения. агиографические термины, исторические факты, религиозные термины, нетипичный перевод

Annotation: This article is devoted to research of hagiographic works in translation study. The study showed that foreign scientists have done a lot of research in the field of hagiographic works. Despite the presence of huge monographic works and researches on the study of hagiographic works in the Uzbek linguistics of literary criticism, it should be noted the first steps taken in Uzbek translation studies, which is the demand of the time.

Keywords: Islamic hagiographic works. hagiographic terms, historical facts, religious terms, atypical translation

Quyidagi maqola agiografik matnlarning tarjimasidagi izlanishlariga bag'ishlangan bo'lib, asosan agiografik atamalarning ilmiy asoslari, tadqiqot usullari hamda zamonaviy tilshunoslikda tutgan o'rni to'g'risida fikr yuritiladi. Ma'lumki, bu sohada ko'pgina izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, o'zbek-frantsuz agiografik terminlar tarjimasiga bag'ishlangan ishlar yetarli darajada emas. Biz avvalambor, mazkur terminni qaerdan paydo bo'lgani, nima ma'no anglatishi borasida so'z yuritimiz. Agiografiya atamasi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, "agio"- muqaddas, "grafo"- yozaman degan ma'noni anglatib, muqaddas olimlar hamda cherkov ulamolarining turar joylarini, muqaddas qadamjolarini va unga bog'liq aspektlarni o'rganadigan bo'lim. Bu terminga etimologik tomondan emas, balki tarixiy tomondan yondashib o'rganamiz, chunki uning kelib chiqishi tarixshunoslikka dahldor bo'lib, muqaddas ulamolar haqidagi ilmiy tadqiqotlar to'plamidir. Agiografik matnlar birinchi marotaba Qadimgi Rossiyada XI asrda Berisoglebsk siklining ochilishi bilan paydo bo'lgan hamda diniy kitoblarga aloqadorligi va o'sha davrlarda cherkovning hukmronligi ustun turganligi uchun eng keng tarqalgan kitobiy janr hisoblangan. Agiografik adabiyotni ilmiy o'rganish esa Yevropa davlatlarida XVI-XVII asrlardan boshlangan.

Ayniqsa, Rim, Belgiya va Frantsiya olimlarida shahar chekkasida hamda provintsiyada yashagan xristianlarning hayoti katta qiziqish uyg'otgan. Bu borada Yakov Voraginskiyning "Legenda Aurea" asari oxirgi yigirma yil ichida muhim bo'lgan yangiliklarni o'z ichiga olgan: tipologik xilma-xillik (hayot ehtirolari, mo'jizalar to'plamlari, adabiy matnlar), identiklik, XIII asrda cherkov va'zlari uchun kerakli bo'lgan eng muhim muolajalar keltirilgan.

Agiografik matnlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish turli asarlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi, masalan L.Genicot boshchiligida "Typologie des sources du Moyen Age", "Hagiographies" asarlari, P.Bertrand va M.Trigalet tomonidan tayyorlangan elektron tasmalar, shuningdek, J.Dalarun va L.Leonardie tomonidan tayyorlangan "Biblioteca Agiografica Italiana" (Italiyan agiografik kutubxonasi), italiyan tilidagi matnli tasmalar shular jumlasidandir. 1979- yili Nanterra shahrida bo'lib o'tgan konferentsiyada Eveline Patlajane va Pierre Riché boshchiligida yozilgan «Hagiographie, culture et société (IVe—XIIe siècle)» ilmiy maqolasida agiografik faktlarni o'rganilishida ijtimoiy va madaniy kontekstlarning o'zaro aloqasi va qator foydali taraflari keltirib o'tilgan. Shuningdek, XX asrda diniy adabiyotlarni tarjima qilish keng tarqalgan bo'lib, nafaqat xristian dini balki islom diniga bo'lgan qiziqish ham ayni kuchaygan davr edi. Arab tilidagi diniy terminlarni rus tiliga o'g'irgan olimlardan biri I.R.Nasbyrov- arab tarjimonining izlanishlaridan ba'zilarini keltirib o'tamiz :

Халь (sostoyanie) - [Misticheskoe sostoyanie]- смысл, который охватывает сердце [sufiya] vnezapno, bez predvaritel'noy podgotovki i iskustvennykh usiliiy.

Макам (stoyanka)- Выражение, обозначающее дьящесыя sostoyanie. "Халь" daruetsya [Bogom], a "makam" priobretaetsya [usiliyami sufiya].

Frantsuz olimi, adabiyot tanqidchisi, tarixshunos xamda Parijda joylashgan «Lycée de Charles de Faucauld», ya'ni Sharl Fokold nomidagi katoliklar internat-litseyi o'qituvchisi Léon Bermanning yaxudiyilar tarixiga oid ilmiy maqolasida xam «agiografiya» fenomeni ishlatilganiga guvoh bo'lamiz: « Ce miracle, ignoré du clergé local au XVIIe siècle, est sûrement le produit de l'imagination de certains spécialistes en hagiographie »

Ushbu jumla o'zbek tilida quyidagi ma'noni anglatadi: XVII asrda mahalliy ruhoniylar tomonidan e'tiborsiz qoldirilgan bu mo'jiza, albatta, agiografiya bo'yicha ba'zi mutaxassislarning tasavvuridir.

Yozuvchilarning asarlaridan tashqari, biz o'rganayotgan atamaning turli tillardagi lug'atlarda ta'riflari berilgan bo'lib, ularni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Frantsuz faylasufi, tarixshunos, leksikograf olim Pol Emil Littre (Paul Emile Littré) tashabbusi bilan 1870-yildan buyon 3 marta nashr etilgan frantsuz tili lug'ati (Dictionnaire de la langue française) katta muvaffaqiyat qozongan. Ushbu lug'atning sodda va cho'ntak ko'rinishini esa 1883-yilda A.Boyan (Amédée Beaujean) tomonidan tayyorlangan xamda ko'p marotaba qayta chop etilgan.

Ushbu ko'p jildli leksikografik lug'atda ushbu terminga quyidagicha ta'rif berilgan: Science de l'hagiographie, science de celui qui a écrit sur les saints.

Navbatdagi lug'at 1951-yilda Dictionnaires Le Robert nomi ostida Pol Rober boshchiligida nashr etilgan. Keyinchalik entsiklopedik lug'atlarni (Robert encyclopédique des noms propres) nashr etishni boshlagan ushbu lug'at o'zida 40000 so'zni qamrab olgan.

Ushbu lug'atdagi "agiografiya" fenomeniga berilgan ta'rifni keltirib o'tamiz:

1.hagiographie \a.zjɔ.gʁa.fi\ féminin

Traité sur les choses saintes.

Ce miracle, ignoré du clergé local au XVIIe siècle, est sûrement le produit de l'imagination de certains spécialistes en hagiographie.

2.(En particulier) Biographie d'un ou plusieurs saints.

C'est pourquoi l'hagiographie insiste si souvent sur l'origine noble du saint, que sa conversion rends plus noble encore.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, mazkur atamaning lug'aviy ma'nosidan tashqari, asarlarda berilgan misollar ham keltirib o'tilgan.

Agiografik terminlar ba'zi jurnal va gazetalardagi maqolalarda xamda yozivchilarning asarlarida xam o'z aksini topgan.

Taxlillar shuni ko'rsatdiki, fenomenga berilgan har bir ta'rifning o'ziga hos jihatlari mavjud. Misol uchun,

-rus olimlarining fikrlariga ko'ra, agiografiya atamasi faqat cherkov tomonidan muqaddas deb topilgan shaxslar, avliyolar xayotiga bag'ishlangan afsonalar, matnlar va qissalar yig'indisi deb xisoblanadi;

-frantsuz lug'atlarida berilishicha, ushbu termin o'rta asr diniy adabiyot janrlaridan biri bo'lib, xristianlarning din yo'lidagi tortgan azob- uqubatlari jamlangan;

-o'zbek lug'atlarida keltirilgan ta'riflarga ko'ra esa, agiografiya – bu payg'ambarlar va avliyolarning hayoti va sarguzashtlarini tasvirlovchi hikoya va qissalar majmuidir.

Turli tillarda berilgan ta'riflar ushbu atamaning ko'plab olimlar tomonidan o'rganilganligi hamda bu borada talayogina ishlar qilinganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Aigrain R. L'hagiographie: Ses sources, ses méthodes, son histoire: Reproduction inchangée de l'édition originale de 1953, avec un complément bibliographique par R.Godding. Bruxelles, 2000. P. 7-8. (Subsidia Hagiographica; Vol. 80).
2. Léon Berman, Histoire des Juifs de France des origines à nos jours, 2007.
3. Littré P.E. Dictionnaire de la langue française//Librairie Hachette, Paris, 2008.— p. 85.
4. Le Robert encyclopédique des noms propres (ex-Le Petit Robert 2), 3 vol.// Liberation. Paris.
5. Ефремова. Толковый словарь Ефремовой. 2012. Санкт-Петербург. - 112стр.
6. Лопатин. Словарь русского языка Лопатина. 2012. Москва, -75 стр.